

TADQIQOTCHILAR MINBARI

HOMIDJON HOMIDIYNING TAZKIRANAVISLIK MAHORATI

Abdulatif LATIPOV,

ORCID: 0009-0008-7308-6139

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich magistranti.

Toshkent. O'zbekiston.

E-mail: abdulatiiflatipov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Homidjon Homidiyning "Ko'hna Sharq darg'alari" asari tazkiranavislik an'analari va zamonaviy adabiy-estetik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tazkira janrining mohiyati, uning tarixiy rivoji, o'zbek adabiyotshunosligidagi o'rni hamda Homidiy ijodidagi ahamiyati yoritilgan. Asarning an'anaviy tazkiralardan farqli jihatlarini, ya'ni adabiy portret yaratish, estetik tafakkurni ochib berish va o'quvchiga ma'naviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini asoslash maqolaning asosiy maqsadidir. Tadqiqot natijasida asar 3 bo'limdan iborat ekani, unda 74 nafar tarixiy shaxs – shoirlar, faylasuflar, olimlar, tasavvuf allomalari, davlat arboblari – haqida ma'lumot borligi aniqlandi. Homidiy an'anaviy tazkiralardan farqli o'laroq to'rt xil: tarixiy-biografik, filologik, estetik-falsafiy, ma'naviy-g'oyaviy yondashuvni uyg'un qo'llagani, sodda va ommabop uslubni tanlagani hamda zamondosh olimlarni ham yodga olgani ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, J.Mahmudov, S.Umarova va M.Omonova tadqiqotlarida Homidiyning tazkiranavislik mahoratiga berilgan baholar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tazkira, tazkiranavislik, o'zbek adabiyotshunosligi, filologik tahlil, estetik yondashuv, adabiy portret, mumtoz adabiyot, ma'naviy qadriyatlar

HOMIDJON HOMIDIY'S MASTERY IN TAZKIRA WRITING

Abdulatif LATIPOV,

ORCID: 0009-0008-7308-6139

Uzbek University of Journalism and Mass Communications

1st year master's student, Uzbek language and literature.

Tashkent. Uzbekistan.

E-mail: abdulatiiflatipov@gmail.com

Abstract. This article analyzes Homidjon Homidiy's work "Ko'hna Sharq darg'alari" from the perspective of tazkira traditions and modern literary-aesthetic approaches. The study examines the essence of the tazkira genre, its historical development, its role in Uzbek literary studies, and its significance in Homidiy's creative work. The main goal of the article is to substantiate the distinctive features of the work compared to traditional tazkiras – namely, creating literary portraits, revealing aesthetic thought, and exerting spiritual influence on the reader. The research found that the work consists of three chapters and contains information about 74 historical figures (poets, philosophers, scholars, Sufi masters, and statesmen). It was scientifically substantiated that Homidiy, unlike traditional tazkira writers, harmoniously applied four different approaches (historical-biographical, philological, aesthetic-philosophical, and spiritual-ideological), chose a simple and popular style, and also mentioned contemporary scholars. Furthermore, the study analyzed the assessments of Homidiy's tazkira – writing skills provided in the research works of J.Mahmudov, S.Umarova, and M.Omonova.

Keywords: *tazkira, tazkira-writing, Uzbek literary studies, philological analysis, aesthetic approach, literary portrait, classical literature, spiritual values.*

МАСТЕРСТВО ХАМИДЖОНА ХАМИДИ В СОСТАВЛЕНИИ ТАЗКИРЕ

Абдулатиф ЛАТИПОВ,
ORCID: 0009-0008-7308-6139

**Университет журналистики и массовых коммуникаций
Узбекистана Направление «Узбекский язык и
литература» Магистрант 1-го курса.
Ташкент. Узбекистан.
E-mail: abdulatiiflatipov@gmail.com**

Аннотация. В данной статье анализируется произведение Хомиджона Хомиди «Кухна Шарк Даргалари» с точки зрения традиций написания тазкиры и современных литературно-эстетических подходов. Исследование охватывает сущность жанра тазкиры, его историческое развитие, его роль в узбекской литературной критике и его значение в творчестве Хомиди. Основная цель статьи — обосновать аспекты произведения, отличающие его от традиционных тазкир, а именно, способность создавать литературный портрет, раскрывать эстетическое мышление и оказывать духовное воздействие на читателя. В результате исследования было установлено, что произведение состоит из 3 разделов и содержит информацию о 74 исторических личностях — поэтах, философах, учёных, мистиках и государственных деятелях. Научно обосновано, что, в отличие от традиционных тазкир, Хамиди гармонично использовал четыре различных подхода: историко-биографический, филологический, эстетико-философский и духовно-идеологический, выбрал простой и популярный стиль, а также учел современных учёных. Также проанализированы оценки навыков тазкирного письма Хамиди в работах Дж. Махмудова, С. Умаровой и М. Омоновой.

Ключевые слова: *тазкира, тазкиранное письмо, узбекская литературная критика, филологический анализ, эстетический подход, литературный портрет, классическая литература, духовные ценности*

Kirish. Homidjon Homidiy (1935–2024) o‘zbek adabiyotshunosligining yirik vakillaridan biri bo‘lib, firdavsiyshunos olim sifatida ham e’tirof etiladi. Olim Namangan viloyati Kosonsoy shahrida tug‘ilgan va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida tahsil olgan. Keyinchalik shu maskanda uzoq yillar ilmiy-pedagogik faoliyat yuritib, filologiya fanlari doktori darajasiga erishdi. Homidjon Homidiy adabiy tanqid, mumtoz merosni o‘rganish hamda tazkiranavislik sohalarida samarali ijod qilib, o‘ttizga yaqin kitob va yuzlab ilmiy maqolalar yaratganlar. Ayniqsa, “Ko‘hna Sharq darg‘alari”, “Daholar davrasi”, “Tasavvuf allomalari” kabi asarlari zamonaviy tazkiranavislikni yangi bosqichga olib chiqqan muhim ilmiy manbalar hisoblanadi.

Mazkur maqolada uning “Ko‘hna Sharq darg‘alari” asari tazkiranavislik an‘analari va zamonaviy adabiy-estetik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, unda qo‘llangan tarixiy-biografik, filologik, estetik-falsafiy va ma‘naviy-g‘oyaviy yondashuvlar uyg‘unligi ochib berilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida tazkiranavislik qadimiy va boy an‘anaga ega bo‘lsada, zamonaviy tazkiralarni, xususan, Homidiyning ushbu asarini maxsus ilmiy tahlil qilish bugungi kunda yetarlicha amalga oshirilmagan. Shu bois tadqiqot mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Maqolada “Ko‘hna Sharq darg‘alari” asarining an‘naviy tazkiralardan

farqli jihatlarini, ya'ni adabiy portret yaratish, estetik tafakkurni yoritish va o'quvchi ongiga ma'naviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari asoslangan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Homidjon Homidiyning "Ko'hna Sharq darg'alari" asarini tazkiranavislik an'analari hamda zamonaviy adabiy-estetik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish, uning an'anaviy tazkiralardan farqli jihatlarini aniqlash va muallif qo'llagan badiiy hamda ilmiy yondashuvlarning o'ziga xosligini asoslashdan iborat. Shu maqsadda tadqiqot davomida asarning tuzilishi, mazmuni, badiiy xususiyatlari hamda tazkiranavislik taraqqiyotidagi o'rni qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi savollarga javob izlandi:

1. "Ko'hna Sharq darg'alari" asari an'anaviy tazkiralardan qanday farq qiladi?
2. Homidjon Homidiy o'z asarida qanday yangi yondashuvlarni qo'llagan?

Adabiyotlar sharhi. Tazkira janri Sharq adabiy-madaniy an'analari alohida o'rin tutuvchi tarixiy-biografik va adabiy-estetik manba hisoblanadi. Tazkira – muayyan davrda yashab ijod etgan adiblarning hayoti, ijodi, uslubi va adabiy shaxsiyati haqida yozilgan tarjimai holi – badiiy asar bo'lib, uning asosiy vazifasi adabiy merosni saqlash, tarixiy-adabiy jarayonni hujjatlashtirish va ijodkorlarning estetik qiyofasini yaratishdan iborat.

Sharqda bu janrning ilk namunalaridan biri Muhammad Avfiyning (1172/1177–1233) "Lubob ul-albob" tazkirasini hisoblashsa, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning (1441–1501) "Majolis un-nafois" asari bu sohada yuksak badiiy-ilmiy darajani belgilab bergan. Navoiy merosining yirik tadqiqotchisi, O'zbekiston Qahramoni Suyima G'aniyeva (1932–2018) o'z ilmiy faoliyatini aynan "Majolis un-nafois" tazkirasini tahlil qilishdan boshlagan va keyinchalik bu sohada o'z maktabini shakllantirgan. G'aniyeva tazkirashunoslik yo'nalishida faoliyat olib borib, tarjima va manbashunoslik masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U shogirdlariga, xususan Ismoil Bekjonga, Hasanxo'ja Nisoriy tomonidan yozilgan "Muzakkiri ahhob" tazkirasini o'rganishni tavsiya etgan. Hasanxo'ja Nisoriy Buxoriy va uning shogirdi Mutrib Samarqandiy tomonidan yozilgan "Tazkirat ush-shuaro" (1605) va "Nusxa-i zebo-i Jahongiriy" (1625–1628) tazkiralari Markaziy Osiyo adabiy va tarixiy tafakkurining bebaho manbalari sanaladi.

Navoiydan keyin Ogahiy (1809–1874) ("Gulshani davlat"), Muqimiy (1850–1903) ("Tazkirai Muqimiy"), Hoji Muin (1883–1942) ("Tazkirai shuaro jadid") kabi adiblar tazkiranavislik an'analari davom ettirishgan. Zamonaviy tazkiranavislik esa faqat faktologik ma'lumot bilan cheklanmay, balki tanqidiy-estetik qarashlar, filologik tahlil, shaxsiyat va obraz uyg'unligini asosiy o'ringa qo'yadi.

J. Mahmudov va S. Umarova (2020) "Zamonamiz tazkiranavisi yoxud Piri Hirot vasiyatiga amal qilgan alloma" nomli maqolasida Homidiy faoliyatini yuksak baholab, uni Abdulla Ansoriyning chaqiriqlariga javob bergan izdoshlar qatoriga qo'yadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, Homidiyning tazkiranavislik faoliyati aspirantlik davridayoq boshlangan va bu uning yuksak xotira quvvati hamda Sharq adabiy-falsafiy an'analari chuqur qiziqishining natijasidir.

M. Omonova (2020) "Tazkiranavislar davomchisi" maqolasida Homidiyning har bir shaxsga xos adabiy portret yaratishga intilishini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, Homidiy asarlarida tazkira janri shunchaki tarjimai hol emas, balki ijodiy-estetik siymoni yoritish vositasiga aylangan. Omonova, shuningdek, Homidiyning Yassaviyga munosabatini "Islom farzu sunnatlarini targ'ib etib, inson qadrini e'zozlagan san'atkordir" deb ta'riflaydi.

Filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov (1937–2012) esa Homidiyning "Tasavvuf allomalari" kitobi haqida: "Rostini aytsam, shunday kitobning yaratilishini anchadan beri orzu qilardim. Kitobni o'qib chiqdim va qoniqish hosil qildim. Chunki katta mehnat amalga oshirilgan", – deb yuqori baho bergan [Homidiy, 2004, 19].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Homidjon Homidiyning "Ko'hna Sharq darg'alari" asari haqida quyidagi jihatlar yetarlicha yoki umuman o'rganilmagan.

O'rganilgan masalalar	O'rganilmagan masalalar
Homidiyning umumiy faoliyati (Mahmudov, Umarova, 2020)	“Ko'hna Sharq darg'alari” asarining maxsus ilmiy tahlili
Asarning tazkiranavislik an'alariga bog'liqligi (Omonova, 2020)	Asar tuzilmasining batafsil tahlili (3 bo'lim, 70 dan ortiq shaxs)
Homidiyning adabiy portret yaratishga intilishi (Omonova, 2020)	Asarda qo'llangan 4 xil yondashuv (tarixiy-biografik, filologik, estetik-falsafiy, ma'naviy-g'oyaviy) uyg'unligi
“Tasavvuf allomalari” kitobiga berilgan baholar (Komilov)	Asarning an'anaviy tazkiralardan farqli jihatlari (adabiy portret, ommabop uslub, zamondoshlarni qamrash)

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sifatli tadqiqot metodologiyasi asos qilib olingan. Chunki Homidjon Homidiyning “Ko'hna Sharq darg'alari” asarini tazkiranavislik an'analari va zamonaviy adabiy-estetik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilish asarning badiiy-estetik xususiyatlarini raqamli ko'rsatkichlar bilan emas, balki tavsifiy, tahliliy va interpretativ usullar orqali o'rganishga to'g'ri keladi. Shu sababli tadqiqotda hujjatli tadqiqot va tarixiy tadqiqot elementlaridan ham foydalanilgan, chunki tazkira janrining o'zi tarixiy manbalarga asoslangan bo'lib, asarda yoritilgan shaxslarning aksariyati o'rta asr Sharq allomalari. Qiyosiy tadqiqot metodi esa “Ko'hna Sharq darg'alari”ni an'anaviy tazkiralardan, xususan Navoiyning “Majolis un-nafois” asari bilan taqqoslash imkonini bergan.

Tadqiqotda qo'llanilgan aniq usullar quyidagilardan iborat: tarixiy-biografik usul (Homidiy hayoti va uning tazkiranavislik an'alariga bog'liqligini aniqlash uchun), filologik tahlil (asarning tili, uslubi va tuzilmasini o'rganish uchun), qiyosiy-tipologik usul (asarni an'anaviy tazkiralardan taqqoslash uchun), estetik-falsafiy tahlil (allomalarning dunyoqarashi va badiiy ifoda vositalarini tahlil qilish uchun) hamda tarkibiy tahlil (asarning 3 bo'limini alohida o'rganish uchun). Tadqiqot obyekti sifatida Homidjon Homidiyning “Ko'hna Sharq darg'alari” (2004) asari tanlab olingan bo'lib, bu asar muallifning tazkiranavislik yo'nalishidagi eng salmoqli va keng qamrovli kitobi hisoblanadi. Qo'shimcha material sifatida muallifning “Tasavvuf allomalari” (2004) asari, tazkiranavislik bo'yicha asosiy manbalar (Navoiyning “Majolis un-nafois”, Avfiyning “Lubob ul-albob”), shuningdek, mavzuga oid ilmiy maqolalar (Mahmudov, Umarova, 2020; Omonova, 2020) va professor Najmiddin Komilovning asarga bergan bahosi tahlilga jalb qilindi. Tahlil natijalari tavsifiy (deskriptiv) usulda umumlashtirilib, asardan olingan iqtiboslar, hikoyatlar va rivoyatlar misol sifatida keltirildi hamda ular asosida muallifning tazkiranavislik mahorati va asarning an'anaviy tazkiralardan farqli jihatlari haqida xulosalar chiqarildi.

Natija. Homidjon Homidiyning “Ko'hna Sharq darg'alari” asari tahlil natijalariga ko'ra, asar 3ta asosiy bo'limdan iborat: birinchi bo'lim “Ma'naviyatimiz sarchashmalari” 47ta, ikkinchi bo'lim “Daholar davrasida” 14ta, uchinchi bo'lim “Haqiqat va ma'naviyat yalovbardorlari” 13ta tarixiy shaxsni qamrab olgan. Jami 74ta shaxs haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, asarda turli xil soha vakillari – shoirlar va yozuvchilar (28ta), faylasuflar va mutafakkirlar (9ta), tasavvuf allomalari (11ta), olimlar (matematik, tilshunos, tarixchi, musiqachi – 14ta), davlat arboblari va sarkardalar (12ta) – qamrab olingan. Bu holat an'anaviy tazkiralardan tubdan farq qiladi. Masalan, Navoiyning “Majolis un-nafois” asari asosan XV asr shoirlariga bag'ishlangan bo'lsa, Homidiy asari qadimgi davrdan (Zardusht) to XX asr olimlarigacha (Sayyidmuboshir Kosoniy) bo'lgan keng davrni va turli sohalarini qamrab oladi. Shuningdek, Ogahiy va Muqimiy tazkiralari ham asosan adabiyot vakillari bilan cheklangan. Homidiy esa bu an'anani buzib, ensiklopedik xususiyatdagi asar yaratgan.

Asar matni tahlili davomida Homidjon Homidiy tarixiy shaxslarni yoritishda to'rtta asosiy yondashuvdan foydalangani aniqlandi. Bular tarixiy-biografik, filologik, estetik-falsafiy hamda ma'naviy-g'oyaviy yondashuvlardir.

Tarixiy-biografik yondashuv orqali tarixiy shaxslarning yashagan davri, hayot yo'li va faoliyati yoritilgan. Filologik yondashuvda ularning asarlari, ilmiy va adabiy merosi, til hamda uslub xususiyatlari tavsiflangan. Estetik-falsafiy yondashuvda mutafakkirlarning dunyoqarashi va estetik qarashlari yoritilgan bo'lsa, ma'naviy-g'oyaviy yondashuv orqali ularning axloqiy fazilatlarini, ma'naviy merosi va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Tahlil natijalari asarda tarixiy-biografik ma'lumotlar bilan bir qatorda hikoyat, rivoyat va iqtiboslardan ham keng foydalanilganini ko'rsatdi. Asarda 20 dan ortiq hikoyat va rivoyat uchraydi. Ular tarixiy shaxslarning hayoti hamda faoliyatiga oid ma'lumotlarni yoritishda qo'llangan.

Asarning yana bir muhim farqli jihati – uslubi. Homidiy asarni sodda, xalqona, ommabop uslubda, Sa'diy Sheroziyning "Guliston"i va Jomiyning "Bahoriston"i ruhida yozgan. Bu uslub asarni keng kitobxonlar auditoriyasi, xususan, talabalar va yosh izlanuvchilar uchun tushunarli va qulay qilgan.

Tadqiqot davomida yana bir muhim holat aniqlandiki, asarda faqat mumtoz davr vakillari emas, balki muallifga zamondosh bo'lgan ayrim olimlar, masalan, Sayyidmuboshir Kosoniy haqida ham ma'lumot berilgan. Bu tazkiranavislik janrining faqat o'tmishni emas, balki hozirgi zamonni ham qamrab oluvchi "tirik matn" ekanligini isbotlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari Homidjon Homidiyning "Ko'hna Sharq darg'alari" asari zamonaviy o'zbek tazkiranavisligida o'ziga xos o'rin egallashini ko'rsatdi. Asarning kompozitsion tuzilishi, qamrov doirasi hamda tarixiy shaxslarni yoritish usullari uni an'anaviy tazkiralardan ayrim jihatlari bilan farqlash imkonini beradi. Xususan, asarda 74 nafar tarixiy shaxsning turli fan va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tizimli ravishda yoritilishi Homidiy tazkirasining nafaqat adabiy, balki ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar J. Mahmudov va S. Umarovanning Homidjon Homidiyning zamonaviy tazkiranavislikning yetuk namoyandalaridan biri sifatida baholagan ilmiy qarashlari bilan uyg'unlashadi. Ular olimning Sharq ilmiy-adabiy merosini zamonaviy kitobxonga sodda va tushunarli shaklda yetkazishga intilganini ta'kidlaydilar. Tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Chunki "Ko'hna Sharq darg'alari" tarixiy-biografik ma'lumotlarni izchil kompozitsiya asosida tizimlashtirish bilan bir qatorda, ularni badiiy va ma'naviy talqin orqali kitobxonga yaqinlashtiradi.

M. Omonovanning Homidiy tarixiy shaxslarning adabiy portretini yaratishga alohida e'tibor qaratgani haqidagi fikrlari ham tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Asarda tarixiy shaxslarning tarjimai holi oddiy faktlar ketma-ketligi tarzida emas, balki ularning ilmiy merosi, dunyoqarashi, axloqiy fazilatlarini va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissi bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Natijada har bir tarixiy shaxsning yaxlit ilmiy-badiiy portreti yaratilgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan tarixiy-biografik, filologik, estetik-falsafiy hamda ma'naviy-g'oyaviy yondashuvlar Homidjon Homidiy tazkiranavislik uslubining asosiy tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ldi. Avvalgi tadqiqotlarda Homidiy ijodining umumiy xususiyatlari yoritilgan bo'lsada, mazkur yondashuvlarning yagona metodologik model sifatida tizimli tahlili uchramaydi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot Homidiy tazkiranavislik mahoratini mazmun va metod uyg'unligida baholashga qaratilganligi bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

Mazkur yondashuvlarning amaliy ifodasi ayrim tarixiy shaxslar misolida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, Borbad haqidagi lavha tahlili shuni ko'rsatadiki, Homidiy uni faqat saroy musiqachisi yoki tarixiy shaxs sifatida emas, balki Sharq musiqasi madaniyatining yirik namoyandasi sifatida talqin qiladi. Muallif Borbadning hayot yo'li va faoliyatini tarixiy-biografik asosda yoritish bilan birga, uning san'atkorlik salohiyati, estetik qarashlari hamda musiqasi

san'atining inson ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rnini ham ochib beradi. Bu esa tarixiy-biografik, estetik-falsafiy va ma'naviy-g'oyaviy yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Tahlil davomida shuni ko'rish mumkinki, Homidiy asaridagi hikoyat va rivoyatlarning o'rne alohida e'tiborga loyiq. An'anaviy tazkiralarda ham hikoyatlar uchraydi, ammo ular ko'pincha uzun, murakkab til va uslubda berilgan. Homidiy esa ularni qisqa, lo'nda va falsafiy xulosalar bilan boyitib, o'quvchiga ta'sir kuchini oshirgan. Faxriddin Ali Safiy qalamiga mansub "Iskandar va Doro" hikoyati buning yorqin misolidir. Hikoyat orqali berilgan "son emas, sifat muhim" degan xulosa nafaqat tarixiy voqeani, balki umuminsoniy hayotiy falsafani o'z ichiga oladi. Bu jihatdan Homidiy asari an'anaviy tazkiralardan ko'ra ko'proq "pandnoma" va "hikmatnoma" janrlariga ham yaqin turadi.

«Ko'hna Sharq darg'alari»ni an'anaviy tazkiralari (Navoiy, Ogahiy, Muqimiy) bilan taqqoslaganda, asarning eng katta farqi – qamrovning ensiklopedik kengligi va uslubning soddaligidir. Navoiy "Majolis un-nafois"da faqat shoirlarni, ko'pincha bir asr ichidagilarni yozgan bo'lsa, Homidiy ikki ming yillik sharq sivilizatsiyasidagi turli sohalarining eng ko'zga ko'ringan namoyandalarini jamlagan. Bu jihatdan uning asari an'anaviy tazkira janridan ko'ra "adabiy ensiklopediya" yoki "adabiy portretlar galereyasi" xarakteriga yaqinroq. Bundan tashqari, Homidiy o'z asarida tarixiy shaxslarni tanlashda an'anaviy mezonlardan tashqariga chiqqan: u podshohlar, sarkardalar, musiqachilar, matematiklar, hatto bir davrda adabiyotga bevosita aloqasi bo'lmagan allomalarni ham tazkirasiga kiritgan. Bu esa uning tazkiradan maqsadi – faqat adabiy merosni emas, balki butun sharq madaniyati va tafakkur tarixini o'quvchiga yetkazish ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, "Ko'hna Sharq darg'alari"ning eng muhim xususiyati tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni oddiy biografik bayon qilish bilan cheklanmasdan, ularning ilmiy, badiiy va ma'naviy merosini yaxlit tizimda yoritishga intilishidadir. Aynan shu jihat asarning zamonaviy tazkiranavislikdagi o'ziga xos o'rnini belgilaydi hamda Homidjon Homidiyning tazkiranavislik mahoratini namoyon etadi. Yana bir muhim jihat – Homidiyning zamondosh olimlarni asarga kiritishi. An'anaviy tazkiralarda muallif o'z davridagi yoki undan avvalgi shaxslarni yozgan bo'lsa, Homidiy yashab turgan davrdagi (XX asr) olim Sayyidmuboshir Kosoniyni ham xotirlagan. Bu bilan olim tazkiranavislik janrini faqat tarixiy hujjat emas, balki zamon bilan hamnafas bo'lgan "tirik" janr ekanligini isbotlaydi. Homidiy bu qarori bilan kelajakdagi tazkiranavislarga o'z zamondoshlarini yozishga, ularni unutib qolishdan saqlashga undagan.

Mazkur tadqiqot natijalari nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan ular Homidjon Homidiy tazkiranavislik uslubining metodologik xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy o'zbek tazkiranavisligi taraqqiyotini o'rganishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida tazkiranavislik, mumtoz adabiyot va adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda, shuningdek, Homidiy ijodiga bag'ishlangan keyingi ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot Homidjon Homidiyning "Ko'hna Sharq darg'alari" asari zamonaviy o'zbek tazkiranavisligining muhim namunalaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asarda an'anaviy tazkiranavislik tamoyillari saqlangan holda ularning zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari bilan uyg'unlashtirilganini ko'rsatdi. Shu jihatdan Homidiy mumtoz tazkira an'alarini davom ettirgan holda, ularni yangi mazmun va badiiy-estetik talqin bilan boyitgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar Homidjon Homidiyning tarixiy shaxslarni yoritishda biografik ma'lumotlarni bayon qilish bilan cheklanmaganini, balki ularning ilmiy, badiiy va ma'naviy merosini yaxlit tizimda talqin etishga intilganini ko'rsatdi. Muallif tomonidan tarixiy-biografik, filologik, estetik-falsafiy hamda ma'naviy-g'oyaviy yondashuvlarning o'zaro uyg'un qo'llanilishi tarixiy shaxs

obrazini ko'p qirrali ochib berishga xizmat qilgan. Mazkur yondashuvlarni yagona metodologik model sifatida tahlil qilish ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Homidjon Homidiyning hikoyat va rivoyatlardan foydalanish usuli tarixiy ma'lumotlarni badiiy talqin bilan boyitishi, tarixiy shaxslarning ma'naviy qiyofasini ochishda muhim vosita vazifasini bajarishi aniqlandi. Xususan, Borbad hamda Faxriddin Ali Safiy bilan bog'liq lavhalar tahlili muallif tarixiy fakti estetik va falsafiy mushohada bilan uyg'unlashtirish orqali kitobxon tafakkuriga ta'sir etuvchi o'ziga xos tazkiranavislik uslubini shakllantirganini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari Homidjon Homidiy ijodini zamonaviy tazkiranavislik nazariyasi nuqtayi nazaridan o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ular o'zbek tazkiranavisligi tarixini tadqiq etish, mumtoz adabiy merosni zamonaviy talqin qilish hamda oliy ta'lim muassasalarida adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Amaliy jihatdan ushbu asardan filologiya fakultetlarida o'zbek adabiyoti tarixi va mumtoz meros fanlarini o'qitishda qo'llanma sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Yosh tadqiqotchilar uchun adabiy portret yaratish va tazkiraviy uslubda ilmiy matn yozish ko'nikmalarini shakllantirishda asardan metodik manba sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

3. Umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida allomalar hayoti va ijodini sodda hamda tushunarli tarzda yoritishda ushbu asardan qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

4. Asarning elektron versiyasi va audiokitobi yaratilsa, keng kitobxonlar, jumladan, ko'zi ojizlar va yosh kitobxonlar uchun ham qulaylik tug'diradi.

5. Kelgusida Homidiyning "Daholar davrasida" va "Tasavvuf allomalari" asarlarini "Ko'hna Sharq darg'alari" bilan qiyosiy tahlil qilish orqali muallifning tazkiranavislik uslubini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi.

6. Asarda keltirilgan rivoyat va hikoyatlarning manbalarini aniqlash hamda ular asosida manbashunoslik tahlillarini olib borish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

7. "Ko'hna Sharq darg'alari" asarini fors, arab va rus tazkiranavislik an'analari bilan qiyosiy o'rganish orqali o'zbek tazkiranavisligining o'ziga xos jihatlari aniqlash mumkin.

8. Homidjon Homidiyning tazkiranavislik mahoratini Suyima G'aniyeva va Ismoil Bekjon kabi zamonaviy tazkirashunos hamda tazkiranavis olimlar ijodi bilan qiyosiy tadqiq etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Xomidiy. Kўхна Шарқ дарғалари. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 352 б.

2. X. Xomidiy. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 208 б.

3. X. Xomidiy. Даҳолар даврасида. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018. – 480 б.

4. Mahmudov J., Umarova S. Zamonamiz tazkiranavisi yoxud Piri Hirot Vasiyatiga amal qilgan alloma. "Mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman. – Toshkent: 2020. – 49–56-betlar.

5. Omonova M. Tazkiranavislar davomchisi. "Mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman. – Toshkent, 2020. – 63–65-betlar.